XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-iyun VII-15-75-10-135-K/25 Bekobod tumani

Bekobod tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi bo‘yicha tuman hokimining 2025-yil 14-maydagi 101-10-135-F/25-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Toshkent viloyati Bekobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharchalar va qishloqlarnng umumiy perimetri **659576,74 metr,** umumiy maydoni **74885,27 gektar** ekanligi aniqlandi

Jumladan:

Zafar shaharchasi umumiy perimetri 8808,90 metr, umumiy maydoni 324,45 gektar;

Ko‘rkam shaharchasi umumiy perimetri 10784,04 metr, umumiy maydoni 133,21 gektar;

Dalvarzin shaharchasi umumiy perimetri 9891,72 metr, umumiy maydoni 313,48 gektar;

Xos shaharchasi umumiy perimetri 10388,91 metr, umumiy maydoni 277,63 gektar;

Zahiriddin Muhammad Bobur shaharchasi umumiy perimetri 11724,90 metr,umumiy maydoni 245,01 gektar;

Bahoriston qishlog'i umumiy perimetri 75856,97 metr, umumiy maydoni 12377,90 gektar;

Chanoq qishlog'i umumiy perimetri 65571,22 metr, umumiy maydoni 8118,35 gektar;

Yangihayot qishlog'i umumiy perimetri 82407,35 metr, umumiy maydoni 10788,09 gektar;

Zarafshon qishlog'i umumiy perimetri 46910,77 metr, umumiy maydoni 6894,90 gektar;

~~M~~adaniyat qishlog'i umumiy perimetri 41405,45 metr, umumiy maydoni 4617,49 gektar;

Qiyot qishlog'i umumiy perimetri 42286,70 metr, umumiy maydoni 5057,06 gektar;

Yangiqoʻrgʻon qishlog'i umumiy perimetri 41546,33 metr, umumiy maydoni 3673,66 gektar;

Guliston qishlog'i umumiy perimetri 49834,04 metr, umumiy maydoni 5938,72 gektar;

Jumabozor qishlog'i umumiy perimetri 31706,46 metr, umumiy maydoni 4104,77 gektar;

Dalvarzin qishlog'i umumiy perimetri 50899,62 metr, umumiy maydoni 4836,85 gektar;

Bekobod qishlog'i umumiy perimetri 39053,62 metr, umumiy maydoni 4930,09 gektar;

Mehnatobod qishlog'i umumiy perimetri 40499,74 metr, umumiy maydoni 2253,61 gektar;

Bekobod tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib koʻrsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizigʻining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bogʻlanib, chegara nuqtalari oʻrtasidagi masofasi va chegara chizigʻining qutb yoʻnalishlari aks ettirildi. Chegara chizigʻining burilish nuqtalari koordinatalari koʻrsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Bekobod tumani filiali rahbarining hisobotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha oʻrganib chiqib, “Oʻzbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunning 10-moddasi hamda Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunning 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi

QAROR QILADI :

1.Davlat kadastrlari palatasi Bekobod tumani filiali rahbari S.Obidovning Bekobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash toʻgʻrisidagi hisoboti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Bekobod tumanidagi shaharchalar va qishloqlarning chegaralarini belgilash boʻyicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalari yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2025-yil 23-maydagi `06/399-sonli yigʻilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Bekobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari toʻgʻrisidagi ma’lumot **1-ilova**ga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash boʻyicha kartografik chizmasi **2-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Mamadaliyev) ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4.Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashidan soʻralsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



MO‘MINOVA
YOQUTXON
ERGASHEVNA

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 28-iyundagi
VII-15-75-10-135-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Bekobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida
M A ’ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1.	Zafar shaharchasi	8808,90	324,45
2.	Koʻrkam shaharchasi	10784,04	133,21
3.	Dalvarzin shaharchasi	9891,72	313,48
4.	Xos shaharchasi	10388,91	277,63
5.	Zahiriddin Muhammad Bobur shahrchasi	11724,90	245,01
6.	Bahoriston qishlog'i	75856,97	12377,90
7.	Chanoq qishlog'i	65571,22	8118,35
8.	Yangihayot qishlog'i	82407,35	10788,09
9.	Zarafshon qishlog'i	46910,77	6894,90
10.	Madaniyat qishlog'i	41405,45	4617,49
11.	Qiyot qishlog'i	42286,70	5057,06
12.	Yangiqoʻrgʻon qishlog'i	41546,33	3673,66
13.	Guliston qishlog'i	49834,04	5938,72
14.	Jumabozor qishlog'i	31706,46	4104,77
15.	Dalvarzin qishlog'i	50899,62	4836,85
16.	Bekobod qishlog'i	39053,62	4930,09
17.	Mehnatobod qishlog'i	40499,74	2253,61
	Jami:	**659576,74**	**74885,27**

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 28-iyundagi
VII-15-75-10-135-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Bekobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining kartografik chizmasi

